

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4 (2)

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	16
PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	25
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	30
Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	42
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	50
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	55
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	60
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	65
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
Xamidova Zarifa Urol qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	74
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	77
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	84
Dadajonova Madina Ravshan qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	89
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	94
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	100
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN.....	105
Maxmudov Rahimjon	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH.....	109
Abduraxmonova Gulmira	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	114
Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li	



FARG 'ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
Tuychieva Odina Nabiyeвна	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICH LARI.....	140
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI.....	144
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	149
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	156
Odinayev Ravzatullo Asatulloevich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
Karimov Alibek Valievich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	167
Xodjayeв Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li	
"O'ZBEKISTON GTL" MAHSULOTLARINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG'ILAR OLIISH ISTIQBOLLARI.....	173
Ro'ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux	
HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI.....	179
Marqayev Xurshid Aliqulovich	
ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	183
Zaripova Sayohat Zafarovna	
XIZMATLAR SOHASINI BOSHQARISHDAGI MUAMMOLAR VA YECHIMLAR: AGROTURIZM VA RAQAMLI XIZMATLAR ASOSIDA TAHLIL (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA).....	188
Oktamjonova Gulira'no Ikromjon qizi	
BUXORO VILOYATI UY XO'JALIKLARI HAYOT SIFATI VA IJTIMOIIY-IQTISODIY AHVOLI: SO'ROVNOMA NATIJALARI TAHLILI.....	192
Nizomov Asliddin, Musulmonova Shahlo, Izzatullayeva Ma'mura	
DIRECTIONS FOR TOURISM DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES..	199
Mirzaev Kulmamat Djanzakovich	
QORA METALLURGIYA SANOATI VA ULARNING ISHLATILISHI.....	203
Sarimsakov Alisher Ubaydullaevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	209
Yusupov Farhod Adamboyevich	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI

Yusupov Farhod Adamboyevich

TDIU mustaqil izlanuvchisi

Annotasiya: Mazkur maqolada mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash, bandlik darajasini oshirish hamda unga ta'sir etuvchi omillarni boshqarishda mehnat bozoridagi o'zgarishlar tendensiyalari yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ishchi kuchi, inson kapitali, talab va taklifning optimal nisbati, mehnat resurslaridan samarali foydalanish, mehnat bozorining egiluvchanligi.

Аннотация: В данной статье освещаются тенденции изменений на рынке труда в нашей стране в контексте обеспечения занятости, повышения уровня занятости и управления факторами, влияющими на нее.

Ключевые слова: рабочая сила, общий спрос и предложение рабочей силы, оптимальное соотношение спроса и предложения, эффективное использование трудовых ресурсов, гибкость рынка труда.

Abstract: This article highlights trends in changes in the labor market in our country in ensuring employment, increasing the employment rate, and managing the factors affecting it.

Keywords: labor force, general demand and supply of labor, optimal ratio of demand and supply, efficient use of labor resources, labor market flexibility.

KIRISH

Mamlakatimizda aholi bandligini ta'minlash, bandlik darajasini oshirish hamda unga ta'sir etuvchi omillarni boshqarishda mehnat bozoridagi o'zgarishlar tendensiyalarini iqtisodiy-statistik o'rganish muhim hisoblanadi. Jahon mehnat bozorida yuz berayotgan global o'zgarishlar ta'sirida bandlik modellarida ham o'zgarishlar yuz bermoqda. Mehnat bozoridagi global o'zgarishlarning asosiy jihatlari ilmiy-texnika taraqqiyotining tobora rivojlanib borishi bilan izohlanib, u mehnat bozorining tarkibi hamda mehnat resurslarining malakasiga qo'yiladigan talablarning jiddiy o'zgarishiga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan, global hamda milliy iqtisodiyotda yuz berayotgan asosiy o'zgarishlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, bandlik modellarida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar va rivojlanish yo'nalishlarini tadqiq etishning ahamiyati ortib bormoqda.

Bugungi kunda milliy mehnat bozoridagi munosabatlarni tartibga solish jarayonida O'zbekiston Respublikasining 20.10.2020 yildagi "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'RBQ-642-son¹ Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi² muhim huquqiy baza hisoblanadi. Ko'rsatib o'tilgan normativ qonun hujjatlarida ishsizlik, bandlik, ish bilan bandlik shaklini tanlash huquqi, ishsizlikdan ijtimoiy himoya qilish kafolatlari e'tirof etilgan. Amalda mamlakatimiz mehnat bozoridagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy bazaning yetarli darajada shakllanganligiga qaramay, har yili o'rtacha 1,5 million odamni ishga joylashtirishga ehtiyoj mavjud bo'lgan holda mavjud ehtiyojning atigi 30–45% foizi ishga joylashtirilmoqda. Ushbu holat milliy mehnat bozori va uning infratuzilmasini mutanosib holda rivojlanishini ta'minlash, ishsizlik darajasini kamaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi. Ayniqsa, jahon miqyosida 2019-yilning dekabridan boshlangan va bugungi kunda davom etayotgan raqobat sharoitida aholi bandligi masalasi o'tkir ijtimoiy masalaga aylangan.

Yuqoridagi holatlarni e'tiborga olgan holda, 2020-yildan boshlab aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash hamda aholi bandligini ta'minlash mamlakatimizda raqobat ta'sirini yumshatish borasidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlarda asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Amalga oshirilayotgan islohotlar natijalari asosida yuzaga kelayotgan mehnat bozoridagi o'zgarishlarni baholashda o'zgarish qonuniyatlarini aniqlash va tendensiyalarni iqtisodiy-statistik baholash muhim hisoblanadi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, milliy mehnat bozoridagi o'zgarishlarni iqtisodiy-statistik tadqiq etish hamda yuz berayotgan o'zgarishlarni uslubiy jihatdan asoslash maqsadida tadqiqot amalga oshirilishi belgilandi.

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5055690>

2 <https://lex.uz/ru/docs/-6257288>

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston Respublikasida aholi bandligining iqtisodiy-statistik tahliliga oid ilmiy qarashlar shakllanishida mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, Abdurahmonov Q.X. hamda hamkor mualliflar 2011-yilda mehnat iqtisodiyoti sohasida olib borgan tadqiqotlarida bandlik, mehnat bozori va ishchi kuchi taklifi hamda talabining o'zaro bog'liqligini tizimli ravishda yoritib bergan. Muallifning 2009 va 2012-yillardagi ishlarida esa mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi, mehnat unumdorligi hamda bandlikning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati chuqur tahlil qilingan.

Mintaqaviy rivojlanish va bandlik jarayonlarini prognozlash masalalari Berkinov B.B., Ashurova D.S. va Abdullaev M.K. tomonidan 2011-yilda o'rganilib, hududlar kesimida bandlik ko'rsatkichlarini baholash va istiqbollashning ilmiy-uslubiy yondashuvlari ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, Ishmuxamedov A.E. va hammualliflarning 2005-yildagi tadqiqotlarida makroiqtisodiy siyosatning bandlik darajasiga ta'siri, iqtisodiy o'sish va ish bilan ta'minlash o'rtasidagi bog'liqlik masalalari yoritilgan.

Makroiqtisodiy tahlil doirasida Xaydarov M. va Abdullaeva M. 2007-yilda bandlik ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish, ularning dinamikasini baholash hamda iqtisodiy jarayonlar bilan o'zaro aloqadorligini aniqlash usullarini taklif etgan. Xolmo'minov SH.R. va Shoyusupova N.T. 2007-yilda mehnat bozori iqtisodiyoti doirasida bandlik, ishsizlik va ishchi kuchi harakati masalalarini nazariy va amaliy jihatdan asoslab bergan.

Ekonometrik yondashuvlar Alimov R.X. va hammualliflar 2012-yilda hamda Shodiev T.SH. va boshqalar 2007-yilda olib borgan tadqiqotlarda keng qo'llanilib, bandlik ko'rsatkichlarini modellashtirish, regressiya va korrelyatsion tahlil orqali iqtisodiy omillar ta'sirini aniqlash imkoniyatlari ko'rsatib berilgan. Xakimov T.X. 2013-yilda iqtisodiy o'sishning matematik modellari orqali bandlik va ishlab chiqarish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilgan.

Xorijiy tadqiqotlar orasida Keith Hart tomonidan 1973-yilda ilgari surilgan norasmiy iqtisodiyot konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, u bandlikning rasmiy va norasmiy shakllari o'rtasidagi farqlarni aniqlashda muhim nazariy asos yaratgan. Shuningdek, Ken-Ichi Inada tomonidan 1963-yilda ishlab chiqilgan ikki sektorli iqtisodiy o'sish modeli bandlik va ishlab chiqarish o'rtasidagi muvozanatni tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, G'oyibnazarov B.K. va Kolonova L. tomonidan 2007-yilda ijtimoiy soha iqtisodiyoti doirasida bandlikning ijtimoiy jihatlari, aholi farovonligi bilan bog'liqligi tahlil qilingan bo'lsa, Arxipova N.I. va Sedova O.L. 2003-yilda personalni boshqarish masalalarini yoritib, mehnat resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlarini ochib bergan. Gulyamov S.S. va Begalov B.A. 2010-yilda axborot texnologiyalarining iqtisodiyotga, jumladan, mehnat bozoriga ta'sirini tahlil qilib, raqamli transformatsiya sharoitida bandlikni o'rganishning yangi yo'nalishlarini ko'rsatib bergan.

Umuman olganda, mazkur adabiyotlar aholi bandligini iqtisodiy-statistik jihatdan tahlil qilish, uni modellashtirish, prognozlash va boshqarish bo'yicha kompleks ilmiy asosni shakllantirib, O'zbekiston sharoitida bandlik siyosatini takomillashtirish uchun muhim nazariy va amaliy manba sifatida xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda 2011–2024-yillar uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining demografiya va mehnat bozori ko'rsatkichlari bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanildi. Ma'lumotlar statistik hisobotlar va tahliliy manbalar orqali yig'ildi. Tahlil jarayonida qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili hamda tarkibiy statistik usullar qo'llanilib, bandlik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar va tendensiyalar aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratadigan ushbu omillar qatoriga ilmiy va texnikaviy taraqqiyotning tarkibiy ehtiyojlari, aholi turmush darajasi dinamikasi, jamiyatda iste'molchi psixologiyasining o'zgarishi kabi omillarni kiritish mumkin. Bandlikning yangi modeli postindustrial modelga o'xshash bo'lib, unda ishlab chiqarish an'anaviy omillarining roli o'zgaradi, bunda axborot va bilim alohida o'rin egallaydi, asosiy rivojlanish intellektual faoliyatga qaratiladi. Ushbu modelda ishlab chiqarish xizmatlari uchun yangi, yuqori malakali ish o'rinlarini va aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq past malakali ish o'rinlarini shakllantirish funksiyasini o'z ichiga oladigan xizmat ko'rsatish sohasi alohida o'rin tutadi (1-jadval).

Bandlik modellari va ularning o'ziga xos xususiyatlari³

Bandlik modellari	Bandlik modellari xususiyatlari
Bandlikning klassik nazariyasi	Aholining to'liq bandligi mavjud bozordagi raqobat mavjudligining zaruriy sharti sifatida belgilanadi, bu esa yalpi talabning yalpi taklifga mos kelishiga asoslanadi.
Keyns modeli	Bandlik bozor mexanizmi tomonidan muvozanatga kelmaydi, balki u davlatning ishsizlik va inflyatsiya darajasini tartibga solish bilan bog'liq iqtisodiyotga aralashuvi natijasida barqarorlashadi.
Bandlikning industrial modeli	Moddiy ishlab chiqarish sohasi rivojlanishiga mutanosib holda sohada band bo'lganlar miqdorining ortib borishi kuzatiladi.
Bandlikning postindustrial modeli	Moddiy ishlab chiqarish va unda ishlaydigan ishchilar ulushi uning umumiy hajmi oshishi bilan pasayishi bir vaqtning o'zida ro'y beradi. Bandlikning moddiy ishlab chiqarishdan xizmatlar sohasiga ko'chish jarayoni boshlanadi.
Bandlikning yangi modeli	Ishlab chiqarish an'anaviy omillarining roli o'zgaradi. Bunda axborot va bilim alohida o'rin egallaydi, asosiy rivojlanish intellektual faoliyatga qaratiladi. Ushbu modelda ishlab chiqarish xizmatlari uchun yangi, yuqori malakali ish o'rinlarini va aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq past malakali ish o'rinlarini shakllantirish funksiyasini o'z ichiga oladigan xizmat ko'rsatish sohasi alohida o'rin tutadi. Mehnat motivatsiyasi tizimi o'zgaradi, "mehnat" tushunchasiga nisbatan yondashuv o'zgaradi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan modellar asosidagi o'zgarishlar turli mamlakatlar mehnat bozorida tendensiyalarning mohiyati va xususiyatlarini nazariy jihatdan izohlash imkonini beradi.

Har bir mamlakatda aholi bandligidagi tendensiyalar o'zgarishini tahlil qilish uchun iqtisodiy-statistik tahlilni amalga oshirish talab etiladi. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining demografiya va mehnat bozori bo'yicha 2011–2024-yillardagi asosiy ko'rsatkichlari o'rganib chiqildi (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonda 2010–2024-yillarda mehnat bozori ko'rsatkichlarining o'zgarishi, ming kishi⁴

Mamlakatimizda doimiy aholi soni 2011-yilda 29 339,4 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 37 543,2 ming kishiga yetgan va o'tgan 14 yil davomida doimiy aholi soni 28,0 %ga ortgan (o'sish — 8203,8 ming kishi).

Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi soni esa 2011-yildagi 17 286,4 ming kishidan 2024-yilda 19 904,5 ming kishiga yetgan va o'tgan davrda 15,1 %ga ortgan (o'sish — 2618,1 ming kishi).

Mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonidagi iqtisodiy faol aholi soni 2011–2024-yillar davomida 20,3 %ga ortib (o'sish — 2556,4 ming kishi), yillar davomida mos ravishda 12 541,5 ming kishidan 15 097,9 ming kishiga yetgan.

Iqtisodiy faol aholi tarkibidagi iqtisodiyotda band aholi soni ham barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, 2011–2024-yillarda ushbu ko'rsatkich 11 919,1 ming kishidan 14 261,9 ming kishiga yetgan va 19,7 %ga o'sgan (o'sish — 2342,8 ming kishi).

3 Manba: muallif ishlanmasi

4 Manba: muallif ishlanmasi

Mehnat bozori ko'rsatkichlarining tarkibiy o'zgarishi bo'yicha statistik tahlil o'tgan 14 yil davomida alohida ko'rsatkichlar bo'yicha o'ziga xos o'zgarishlar yuz berganligini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

Aholi bandligi ko'rsatkichlarining statistik tahlili, %da⁵

Ko'rsatkichlar	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Doimiy aholi	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100	100
Mehnatga layoqatli aholining doimiy aholi sonidagi ulushi	58,9	59	58,9	58,7	58,4	58,1	57,6	57,1	56,4	55,9	57,9	54,4	53,2	53,0
Iqtisodiy faol aholining doimiy aholi sonidagi ulushi	42,7	43,2	43,5	43,9	44	44	44,3	44,4	44,3	43,2	42,9	42,2	40,9	40,2
Iqtisodiy faol aholining mehnatga layoqatli aholi sonidagi ulushi	72,6	73,2	73,9	74,8	75,3	75,8	76,9	77,8	78,5	77,3	78,2	77,5	76,8	75,9
Iqtisodiyotda bandlarning doimiy aholi sonidagi ulushi	40,6	41,1	41,4	41,7	41,7	41,8	41,7	40,3	40,3	38,7	38,8	38,4	38,1	38,0
Iqtisodiyotda bandlarning mehnatga layoqatli aholi sonidagi ulushi	69	69,6	70,3	71	71,5	71,9	72,4	70,5	71,5	69,2	67	70,7	71,6	71,7
Iqtisodiyotda bandlarning iqtisodiy faol aholi sonidagi ulushi	95	95,1	95,1	94,9	94,8	94,8	94,2	90,7	91	89,5	90,4	91,1	93,2	94,5

Jumladan, iqtisodiyotda bandlar sonining mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonidagi ulushi (2,7 foiz punkti), iqtisodiy faol aholi sonining mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonidagi (3,3 foiz punkti) ulushi barqaror o'sib borishi kuzatilsada, iqtisodiy faol aholi sonining doimiy aholi sonidagi ulushi (-2,5 foiz punkti), mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonining doimiy aholi sonidagi ulushi (-5,9 foiz punkti), iqtisodiyotda bandlar sonining doimiy aholi sonidagi ulushi (-2,6 foiz punkti) va iqtisodiy faol aholi sonidagi ulushi (-0,6 foiz punkti) pasayganligi ko'rinadi.

Bundan xulosa qilish mumkinki, aholi bandligi darajasi bilan birga parallel ravishda ishsizlik darajasi ham oshib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bandlik modellariga konseptual yondashuvlarni ilmiy abstraksiya usulida tadqiq etilishi natijalari asosida quyidagi xulosalar olindi:

Rivojlangan mamlakatlarda mehnat bozorida bandlik darajasining asosiy tendensiyasi sifatida iqtisodiy faol aholi tarkibining moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan xizmat ko'rsatish sohalariga ko'chib o'tishini ko'rsatib o'tish mumkin.

Xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi bilan vaqtinchalik yollanuvchi ishchilarni jalb etish keng tarqalmoqda. Shu sababli bandlikning joriy davrdagi modeli vaqtincha mehnatdan foydalanishni kengaytirish bilan tavsiflanadi.

Xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi bilan bog'liq yana bir tendensiya bu — mehnat resurslari umumiy tarkibidagi ayollar ulushining ortishidir.

Bandlik modelidagi mehnat intensivligi darajasi bo'yicha ishchilar ikki guruhga: mehnat sig'imi past, lekin ishchilarning kasbiy tayyorgarligi yuqori bo'lgan guruh va yuqori mehnat sig'imiga ega va kasbiy tayyorgarlik darajasiga talab past bo'lgan guruhga ajratish mumkin.

O'zbekiston mehnat bozorida bandlik ko'rsatkichlarining iqtisodiy-statistik tahlili natijasi asosida milliy mehnat bozorida quyidagi tendensiyalar yuz berayotganligini ko'rsatib o'tish mumkin:

Aholi bandligi darajasiga ta'sir etuvchi demografik va bandlik ko'rsatkichlari yillar davomida barqaror o'sib bormoqda.

Iqtisodiyotda bandlar sonining mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonidagi ulushi (2,7 foiz punkti), iqtisodiy faol aholi sonining mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonidagi (3,3 foiz punkti) ulushi barqaror o'sib bormoqda.

Ko'rilayotgan davrda iqtisodiy faol aholi sonining doimiy aholi sonidagi ulushi (-2,5 foiz punkti), mehnatga layoqatli yoshdagi doimiy aholi sonining doimiy aholi sonidagi ulushi (-5,9 foiz punkti), iqtisodiyotda bandlar sonining doimiy aholi sonidagi ulushi (-2,6 foiz punkti) va iqtisodiy faol aholi sonidagi ulushi (-0,6 foiz punkti) pasaygan.



Yuqoridagi tahlillar va xulosalardan kelib chiqib, milliy mehnat bozorida aholi bandligi darajasini tabiiy ishsizlik darajasini hisobga olgan holda samarali darajada bo'lishini ta'minlash uchun jahon miqyosida bandlik modellarida yuz berayotgan o'zgarishlarni e'tiborga olish hamda bandlikka ta'sir etuvchi omillarni samarali boshqarish orqali mamlakatimizda aholi bandligini samarali tashkil etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N.T., Bakieva I.A. Mehnat iqtisodiyoti: darslik. – T.: TDIU, 2011. – 237 b.
2. Berkinov B.B., Ashurova D.S., Abdullaev M.K. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini prognozlash: o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – 178 b.
3. Ishmuxamedov A.E., Xaydarov M.T., Muxamedjanova G.Ya., Abdusattarova X.M. Makroiqtisodiy siyosat muammolari: o'quv qo'llanma –T.: TDIU, 2005. –147 b.
4. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi: darslik. –T.: Fan va texnologiya, 2012. –126 b.
5. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: darslik. –T.: Mehnat, 2009. –227 b.
6. Xaydarov M., Abdullaeva M. Makroiqtisodiy tahlili: o'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2007. –149 b.
7. Alimov R.X., Boltaeva L.R., Ishnazarov A.I. Ekonometrika-2: o'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2012. –115 b.
8. Arxipova N.I., Sedova O.L. Menedjment (upravlenie personalom). –M.: Iz-vo "Ippolitova", 2003. –360 s.
9. Xakimov T.X. Iqtisodiy o'sishning matematik modellari: o'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2013. –194 b.
10. Xolmo'minov SH.R., Shoyusupova N.T. Mehnat bozori iqtisodiyoti: o'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2007. –178 b.
11. Shodiev T.SH., Xakimov T.X., Boltaeva L.R., Ishnazarov A.I., Nurullaeva SH., Muminova M.A. Ekonometrika: o'quv qo'llanma. –T.: TDIU, 2007. –178 b.
12. G'oyibnazarov B.K., Kolonova L. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. –T.: 2007. –106 b.
13. Hart K. (1973). Informal economy opportunities and the urban employment in Ghana. *Journal of Modern Africa Studies*, no. 11 (1), pp. 61–89.
14. Gulyamov S.S., Begalov B.A. Informatika va axborot texnologiyalari. –T.: Fan, 2010. –876 b.
15. Inada K. On a Two-Sector Model of Economic Growth: Comments and a Generalization // *Review of Economic Studies*. 1963. № 30, pp. 119–127.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100